

JINOYAT QONUNLARINING MAKONDA AMAL QILISH DOIRASINI XALQARO HUQUQ NORMALARI BILAN TARTIBGA SOLINISHI.

Otayev O'tkirbek Matyoqubovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish
instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus
fanlar sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik*

Annotation: jinoyat qonunlarining makonda amal qilish doirasini xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinishing nazariy va amaliy jixatlariga ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.

Xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan muhim masalalardan biri bu xalqaro huquq normalarining makonda amal qilish doirasining ta'siridir. Xalqaro hujjatda muayyan jinoiy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilanayotganda, bunday jinoyatning har biriga alohida holatda qaysi davlat jinoyat qonunchiligi qo'llanilishi mumkinligi haqidagi savol tug'iladi. Bundan tashqari, shaxsni xalqaro sud tomonidan jinoiy javobgarlikka tortish masalasi tug'ilishi mumkin, keyin esa xalqaro yurisdiksiya va milliy davlatlarning yurisdiksiyasini farqlash kerak. Hozirgi vaqtida xalqaro huquqda jinoiy-huquqiy normalarning makonda amal qilishi doirasi hududiy, fuqarolik (faol shaxsiy), jinoiy yurisdiksiyadan immunitetlar, Real (himoyalanish), universal va ekstradisiya deb nomlanuvchi tamoyillar majmuasiga asoslanadi.

Jinoyat-huquqiy normaning amal qilish doirasining eng qadimgi tamoyili hududiy tamoyildir. Ilgari u «yer prinsipi» sifatida tanilgan. Jinoyat huquqi normalarining ta'siri, qoida tariqasida, davlat hududi bilan chegaralanadi. Davlatlar xalqaro huquqqa muvofiq chegaralarni o'rnatadilar. Milliy jinoiy qonunlar fuqarolik samolyotlari va davlat bayrog'i ostida suzuvchi kemalarga, ularning joylashgan joyidan shuningdek, harbiy kemalarga ular qayerda bo'lishidan qat'iy nazar qo'llaniladi. Jinoyat huquqining hududiy ta'siri ko'plab xalqaro hujjatlarda ko'zda tutilgan. Jumladan: "Genotsid jinoyatining oldini olish va jazolash to'g'risida"gi 1948 yilgi konvensiyaning 6-moddasida "Genotsid sodir etganlikda ayblangan shaxslar ... hududida ushbu qilmish sodir etilgan davlatning vakolatli sudi yoki shunday xalqaro sud tomonidan sudlanishi kerak" deb belgilangan.

1979 yildagi "Garovga qarshi" konvensiyada har bir ishtirokchi davlat o'z hududida yoki dengiz yoki havo kemasida ro'yxatga olingan konvensiyada ko'zda tutilgan har qanday jinoyatga nisbatan bu davlat o'z yurisdiksiyasini o'rnatish uchun zarur bo'lgan choralarни ko'rishini nazarda tutadi.ⁱ

Xalqaro huquqda jinoyat huquqi qoidalaring makonda amal qilish doirasi masalasini ko'rib chiqishda xalqaro shartnomalarda ishtirok etuvchi davlatlarning

davlat hokimiyati suvereniteti va mustaqilligi doimo ta'kidlanadi. Xususan, yuqoridagi konvensiyada aytishicha, garovga olish bilan bog'liq holda, ichki qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan boshqa har qanday jinoiy yurisdiksiya istisno qilinmaydi. Xalqaro huquqqa muvofiq, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi o'ta xavfli jinoyatlar (xalqaro jinoyatlar) uchun jinoiy javobgarlik xalqaro standartlarga muvofiq yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda milliy qonunchilik normalari emas, balki xalqaro hujjatlarning jinoyat huquqi qoidalari qo'llaniladi va yurisdiksiyani xalqaro sud, ayrim hollarda esa milliy sud amalga oshiradi. 1998 yilgi Rim statusiga binoan, Xalqaro jinoiy sud bir davlat hududida sodir etilgan xalqaro jinoyatga nisbatan yurisdiksiyani amalga oshirishi mumkin (12-modda)ⁱⁱ. Shuningdek xalqaro huquqda normalarning makonda amal qilish ta'siri fuqarolik tamoyilga muvofiq xam amalga oshiriladi. Bu prinsipga ko'ra, davlat, chet davlat hududida jinoyat sodir etgan o'z fuqarosiga nisbatan o'z yurisdiksiyasini amalga oshiradi. Huquqiy normaning fuqarolik prinsipi ko'plab xalqaro konvensiyalarda mustahkamlangan. Jumladan: 1979-yildagi "Garovga qarshi Konvensiya"ga ko'ra, davlat o'z fuqarosini, shuningdek, odatda o'z hududida yashovchi fuqaroligi bo'limgan shaxslarni Konvensiyada nazarda tutilgan har qanday jinoyatni sodir etganliklari uchun o'z jinoiy qonunchiligiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortish huquqiga ega.

BMTning 2000 yildagi "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi" konvensiyasining 15-moddasida "Agar jinoyat shu ishtirokchi davlat fuqarosi yoki uning hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'limgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, har bir ishtirokchi davlat o'z yurisdiksiyadan foydalanadi"ⁱⁱⁱ deb ta'kidlangan. Davlat hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'limgan shaxs ham ushbu davlat bilan mustahkam aloqa o'rnatadi. Shuning uchun xalqaro huquqda davlat ushbu toifadagi shaxslar davlat hududidan tashqarida jinoyat sodir etganda, ularga nisbatan jinoiy yurisdiksiyani kengaytirishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Xalqaro huquqqa odatda, milliy davlat ko'rib chiqayotgan huquqni amalga oshirishga o'z hududida doimiy yashovchi fuqaro yoki fuqaroligi bo'limgan shaxs jinoyat sodir etilgan joyda, jinoiy javobgarlikka tortilmagan va o'z vataniga qaytgan yoki u ekstradisiya qilingan taqdirda murojaat qilinadi. Hozirgi vaqtida bu tamoyil asosan ikki yo'l bilan amalga oshirilmoqda. Ayrim davlatlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy javobgarlikka tortish maqsadida ijtimoiy xavfli qilmish (jumladan O'zbekiston ham) uchun ikki tomonlama jinoiy javobgarlikni belgilab beradi. Boshqa davlatlar esa, chet davlatda sodir etilgan qilmishlar, mahalliy qonunlar bo'yicha jinoiy deb tan olinishi yoki tan olinmasligidan qat'iy nazar fuqarolik tamoyilini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlaydi. Jumladan, Germaniya, Koreya, Yaponiya davlatlari.

Ikki tomonlama jinoyat to'g'risidagi nizom xalqaro huquq prinsipidir, davlatlar uni milliy qonunchilikda qo'llash yoki qo'llamaslik to'g'risida qaror qabul qiladilar. 1957 yildagi "Ekstradisiya to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasining 2-moddasiga

ko‘ra ekstradisiya so‘ragan tomon va so‘ralayotgan tomon qonunlariga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish yoki eng ko‘p muddatga hibsga olish kamida bir yil yoki undan ham jiddiyroq jazo tartibida jazolanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarga nisbatan amalga oshiriladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1990-yildagi rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan “Ekstradisiya to‘g’risida”gi namunaviy shartnomada aytishicha, ekstradisiya qilish mumkin bo‘lgan jinoyatlar har ikki tomon qonunlariga ko‘ra, bir yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki undan og’irroq jazo, boshqa turdag'i ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlardir. Xalqaro huquqda jinoyat huquqi normalarining makonda amal qilish doirasi ta’siri masalalarini hal qilishda jinoiy yurisdiksiyadan immunitetlar instituti muhim rol o‘ynaydi. "Immunitet" atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, “biror narsadan ozod bo‘lish”ni anglatadi. Ya’ni, eng umumiy shaklda daxlsizlik, sodir etilgan jinoyat uchun mahalliy sud tomonidan yurisdiksiyaga tortilmasligini anglatadi. Immunitetlarning ko‘lami uning turiga qarab o‘zgaradi. Xalqaro huquq quyidagi immunitetlarni jinoiy yurisdiksiyadan ajratib turadi:

- ✓ diplomatiq;
- ✓ konsullik;
- ✓ xalqaro tashkilotlar;
- ✓ rasmiy hukumat delegasiyalari;
- ✓ maxsus missiyalar.

Ko‘rib chiqilayotgan immunitetlar xalqaro hujjatlar bilan ta’minlangan. (1961 yilgi Diplomatik munosabatlар to‘g’risidagi Vena konvensiyasi va boshqalar).

Immunitetlar chet el vakolatxonalari vakillari, chet el davlatlarning rasmiy delegasiyalari va xalqaro tashkilotlarga yuklangan funksiyalarni normal bajarishga sharoit yaratish uchun zarurdir. Bunda ushbu toifadagi shaxslar o‘zlari bo‘layotgan davlat chegaralarida sodir etgan jinoyati uchun uning jinoiy yurisdiksiyasiga tortilmasligini belgilab beradi. Xalqaro amaliyatga ko‘ra, bunday shaxslar "nomaqbul shaxslar" (persona non grata) deb e’lon qilinadi va tegishli muddatda davlatni tark etish majburiyatini oladi.

Shaxsning immuniteti quyidagi hollarda tugatiladi:

- ➔ akkreditasiya qiluvchi davlat tomonidan shaxsni chaqirib olish;
- ➔ yashash joyidagi davlat tomonidan shaxsni ishonchini yo‘qotgan shaxs deb e’lon qilish (persona non grata);
- ➔ diplomatik munosabatlarning uzilishi;
- ➔ jo‘natuvchi davlat va qabul qiluvchi davlat o‘rtasidagi urushlar;
- ➔ davlatlardan birining xalqaro huquq subekti sifatida mavjudligini tugatilishi.

Xalqaro huquqda umumiy qoida immunitet turiga qarab nafaqat mansabdar shaxslarga, balki davlat vakolatxonalari binolari, transporti, yozishmalar, arxivlari,

shuningdek, xalqaro tashkilotlar uchun ham to‘liq yoki cheklangan immunitet hisoblanadi. Xalqaro huquqiy hujjatlarga muvofiq, Birlashgan Millatlar Tashkilotida immunitet BMT Bosh kotibi, uning o‘rinbosarlari, Xalqaro Sud sudyalari va boshqalarga berilgan. Xalqaro huquq normalarining makonda amal qilish doirasining muhim tamoyillaridan real va universal prinsiplarni keltirishimiz mumkin. BMTning 1999 yildagi “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g’risida”gi konvensiyasining 7-moddasida Real (haqiqiy) tamoyil quyidagicha ko‘rsatilgan. Har bir davlat Konvensiyada ko‘rsatilgan va sodir etilgan terrorchilik xarakteridagi har qanday jinoyatni moliyalashtirish bo‘yicha o‘z yurisdiksiyasini quyidagi hollarda belgilashi mumkin:

- 1) ushbu davlat fuqarolaridan biriga nisbatan;
- 2) ko‘rsatilgan davlatning xorijdagi hukumat obyektiga, diplomatik yoki konsullik vakolatxonasi binolariga qarshi bunday jinoyat sodir etilgan bo‘lsa;
- 3) ushbu davlatni har qanday harakatni qilishga yoki qilmaslikka majburlashga urinish, bunday jinoyatning sodir etilishiga olib kelgan bo‘lsa.

BMTning 2000 yildagi “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi” Konvensiyasining 15-moddasida xam “davlat fuqarosiga qarshi jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, o‘z yurisdiksiyadan foydalanadi” deb belgilangan. BMTning 2003 yildagi “Korrupsiyaga qarshi” Konvensiyasining 42-moddasida “agar jinoyat shu davlatga qarshi yoki shu davlat fuqarosiga qarshi sodir etilgan bo‘lsa, ushbu davlat Konvensiya bo‘yicha har qanday jinoyat bo‘yicha o‘z yurisdiksiyasini belgilashi mumkin”ligi belgilab qo‘yilgan. Yuqoridagi qoidalar himoyaning Real (haqiqiy) tamoyilini mustahkamlaydi. Bu tamoyilga ko‘ra milliy davlatning jinoyat qonunchiligi xorijda shu davlat manfaatlariga shuningdek uning fuqarolariga qarshi qaratilgan jinoyatlarga nisbatan sodir etilgan xudud va jinoyatchining fuqaroligidan qat’iy nazar qo‘llaniladi. Ushbu tamoyilning ko‘lami nafaqat davlat manfaatlarini, balki fuqarolarning manfaatlarini ham himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Davlat o‘z fuqarolarini jinoyat sodir etilishi natijasida chet elda zarar ko‘rgan taqdirda ularni himoya qilish uchun jinoiy yurisdiksiyani amalga oshirishga haqli. Ushbu Real (himoya qilish) prinsipi, passiv fuqarolik prinsipi deb ham ataladi va davlatning chet eldagagi o‘z fuqarolarini himoya qilish burchidan kelib chiqadi. Tahlil qilinayotgan Real (himoya qilish) tamoyilining harakati odatda ma’lum bir davlatda doimiy istiqomat qilmaydigan va ushbu davlat chegarasidan tashqarida jinoyat sodir etgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Shuning uchun jinoyat huquqi normalarining makonda amal qilish ta’sirining Real (haqiqiy) prinsipi asosan ma’lum bir davlatda doimiy istiqomat qilmaydigan chet elliklar va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Real tamoyil (himoya qilish) o‘z ta’sirini davlat xavfsizligiga ta’sir qiluvchi siyosiy jinoyatlarga ham kengaytiradigan xavfsizlik prinsipi deb ham ataladi. Ammo shuni ta’kidlash mumkinki, davlatlarning xalqaro

amaliyotida Real (himoya qilish) tamoyili tushunchasida sezilarli farqlar mavjud. Davlat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar bilan bir qatorda, ushbu tamoyilga muvofiq iqtisodiy, valyuta va migrasiya bilan bog'liq jinoyatlar ham jazolanishi mumkin ^{iv}. Xalqaro jinoyat huquqida Real tamoyil (himoya yoki xavfsizlik) shundan iboratki, davlatning jinoiy yurisdiksiyasi aybdorlarning fuqaroligidan qat'i nazar, shu davlatdan tashqarida sodir etilgan muayyan harakatlar uchun barcha shaxslarga taalluqlidir. Ushbu Real tamoyilni (himoya yoki xavfsizlik) O'zbekiston Jinoyat qonunchiligiga xam joriy etishni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz. Xalqaro huquq normalari amal qilishining universal tamoyili aslida xalqaro jinoyat huquqining prinsipi bo'lib, u aynan xalqaro jinoyat huquqining rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Universal tamoyil jinoyat sodir etgan shaxslarning millatidan, shuningdek, jinoyat sodir etilgan joydan qat'iy nazar, jinoiy javobgarlikning muqarrarligi va jazolash va jinoyatlarning oldini olish maqsadiga erishishga qaratilgan. Universal prinsipining o'ziga xos xususiyati shundaki, unga muvofiq eng xavfli xalqaro jinoyatlar va xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning jinoyligi va jazolanishi uning fuqaroligidan va jinoyat sodir etilgan hududdan qat'iy nazar, shaxs javobgarlikka tortilgan joyning milliy qonunchiligiga muvofiq belgilanadi, agar xalqaro-huquqiy hujjatlarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'limasa. Xalqaro jinoyatlar va xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning ta'rifi bo'yicha turlicha fikrlar mavjud.

L.V.Inogamova-Xegayning so'zlariga ko'ra "xalqaro jinoyatlar yoki tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni xalqlar, davlatlar o'rtasidagi tinchlik va butun insoniyat xavfsizligi asoslariga tajovuz qiluvchi jinoyatlar deb tushunadi. Uning fikricha xalqaro xarakterdagi jinoyatlar tushunchasi shaxsning asosiy huquqlari va erkinliklarini, tashkilotlar va muassasalarning normal faoliyatini ta'minlash masalalarida davlatlarning, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, ekologik, tadbirkorlik, jinoyatchilikka qarshi kurashish sohalarida birgalikdagi faoliyat va harakatlarni muvofiqlashtirishdagi xalqaro hamkorlik munosabatlariga tajovuz qiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlarga nisbatan ishlatalidi"^v.

A.I.Boykoning fikricha, "xalqaro jinoyatlar (insoniyat tinchligi va xavfsizligiga tajovuz qiluvchi harbiy jinoyatlar) insoniyatning oliy qadriyatlari va manfaatlarini o'z obyekti sifatida qabul qiladi va shuning uchun bu yerda xalqaro huquq va global yurisdiksiya organlari hukmronlik qiladi. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar alohida davlatlarning manfaatlariga putur yetkazadi va ular orqali, xalqaro huquqiy tartibga zarar keltiradi" ^{vi}.

A.G.Knyazovning fikricha "xalqaro yoki tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar deganda xalqaro tinchlik va insoniyatning mavjudligi asoslariga tajovuz qiluvchi munosabatlarni, xalqaro xarakterdagi (an'anaviy) jinoyatlarda esa davlatlarning ijtimoiy iqtisodiy hayotining turli sohalaridagi insonning umume'tirof

etilgan huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi harakatlarni tushnish lozimligini ta'kidlaydi.^{vii}

O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan ko'plab xalqaro konvensiyalarda jinoyatchilikka qarshi kurash ko'zda tutilgan Jumladan: 2000 yildagi "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi" konvensiya; 2003 yildagi BMTning "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasi va boshqalar.

BMTning 2000 yildagi "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi" konvensiyasi umuminsoniy tamoyilni quyidagicha mustahkamlaydi. Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarga nisbatan, har bir ishtirokchi davlat o'z yurisdiksiyasini amalga oshiradi:

agar Konvensianing jinoyati uning hududida og'ir jinoyat sodir etish maqsadida, uning hududidan tashqarida sodir etilgan bo'lsa;

agar jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxs uning hududida bo'lsa va u bunday shaxsni faqat uning fuqarolaridan biri bo'lganligi sababli ekstradisiya qilmasa;

agar jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxs uning hududida bo'lsa va u uni ekstradisiya qilmasa (15-modda).

Huquqiy normaning makonda amal qilish doirasining universal prinsipi - bu davlatning jinoiy yurisdiksiyasini xalqaro jinoyat huquqi tomonidan jinoiy deb e'tirof etilgan qilmishlar uchun, ular sodir etilgan joydan qat'iy nazar, har qanday shaxslarga nisbatan kengaytirishdir. Agar jinoiy-huquqiy normaning umuminsoniy prinsipi va makondagi harakatining boshqa tamoyillari raqobatida birinchisiga ustunlik berilsa, jinoyatchini ekstradisiya qilish instituti bilan umuminsoniy prinsip raqobatida ikkinchisi ustuvor ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda xalqaro amaliyatda jinoyatchini ekstradisiya qilishning asosan ikkita tizimi mavjud:

1. Yevropa kontinental tizimi - kontinental Yevropa, Lotin Amerikasi va boshqa mamlakatlarda ishlaydi;

2. Umumiylu huquqli mamlakatlarning Angliya-Amerika tizimi - Umumiylu huquqli mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Hindiston, Yangi Zelandiya va boshqalar) jinoyatchini ekstradisiya qilish xalqaro shartnomaga asoslanadi.

AQSh Oliy sudi bir necha bor jinoyatchini ekstradisiya qilish davlatlar o'rtasidagi shartnomalar asosida amalga oshirilishi mumkinligi haqida qaror chiqargan. Umumiylu huquqli mamlakatlarning o'ziga xos xususiyati jinoyatchini ekstradisiya qilishdan tashqari, qoida tariqasida xalqaro shartnomalar mavjud bo'lgan, o'z fuqarolarini ekstradisiya qilmaslik to'g'risidagi xalqaro huquqning odatiy qoidasini tan olmaslikdir. 1957 yildagi "Ekstradisiya to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi Yevropa-kontinental ekstradisiya tizimining asosini tashkil etadi.^{viii} Konvensiya so'ralayotgan tomonning

vakolatli organlari jinoyat sodir etganligi bo‘yicha jinoiy ish yuritayotgan yoki hukm yoki qamoqqa olish tartibini ijro etish uchun qidiruvda bo‘lgan shaxslarni ekstradisiya qilish tartibi va shartlarini belgilaydi.

Jinoyatchini ekstradisiya qilish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- sodir etilgan ijtimoiy xafli qilmish ekstradisiya talab qilinishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar qatoriga kirsa, jinoyatchilar ekstradisiya bo‘lishi kerak. Agar so‘rov kelib tushgani munosabati bilan jinoyat sodir etganlik uchun so‘ragan tomon va so‘ralayotgan tomon qonunchiligidagi ushbu jinoyat uchun kamida bir yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan bo‘lsa, tutib berish amalga oshiriladi (2-modda);

- sodir etilgan ijtimoiy xafli qilmishning "ikki tomonlama jinoyat" bo‘lishi kerakligi ya’ni xuquqbazarlik har ikki tomonning qonunlariga muvofiq jinoyat deb hisoblanishi kerak. Ikki tomonlama jinoyatchilik tamoyili xalqaro huquqiy qoidadir;

-Ekstradisiya qilingan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish faqat ekstradisiya qilingan shaxs sodir etgan jinoyati uchungina amalga oshirilishi kerak (14-modda).

Konvensiya jinoyatchini ekstradisiya qilishning belgilangan prinsiplaridan tashqari, quyidagi asoslar bo‘yicha ekstradisiya qilish bo‘yicha boshqa cheklovlarini ham nazarda tutadi:

ta’qib kamsitish asosida amalga oshiriladi (irqiy, diniy, milliy, fuqarolik);

jinoyatning siyosiy mohiyati;

bojxona to‘lovleri va yig’imlari bilan bog’liq;

vaqt o‘tishi;

“idem bis” yo‘q tamoyiliga rioya qilish ichida;

ekstradisiya qilingan shaxsga nisbatan o‘lim jazosini qo‘llash imkoniyati;

jinoyat sodir etilgan joy va boshqalar.

Agar o‘ziga nisbatan so‘rov qilingan shaxs siyosiy jinoyat sodir etishda ayblansa, tutib berish amalga oshirilmaydi (3-modda). Shu bilan birga, Konvensiya davlat rahbariga yoki uning oila a’zolariga suiqsad qilish siyosiy jinoyat hisoblanmasligini ta’kidlaydi, “bis” tamoyili ichida “idem” nafaqat ilgari chiqarilgan sudlanganligi, balki oqlanganligi, shuningdek, shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan taqdirda ham qo‘llaniladi. Masalan: afv etish yoki amnistiya (9-modda). Konvensiyada jinoyatchini o‘lim bilan jazolanishi mumkin bo‘lgan jinoyat uchun ekstradisiya qilishni mutlaq taqiqlash mavjud emas. Agar tutib berish so‘ralayotgan jinoyatchi uchun, so‘ralayotgan tomonda o‘lim jazosi nazarda tutilgan bo‘lsa, lekin bu jazo so‘ralayotgan tomonda ta’milnagan yoki ijro etilmagan bo‘lsa, tutib berish rad etilishi mumkin. Agar shaxs so‘ragan tomonga topshirilgandan keyin unga nisbatan o‘lim jazosini qo‘llash mumkin bo‘lsa, ikkinchisi bu holatda ushbu jazo turi qo‘llanilmasligiga kafolat beradi. Davlat o‘z fuqarolarini ekstradisiya qilishdan bosh tortishi mumkin (6-modda). Shu bilan birga, agar so‘ralayotgan tomon o‘z fuqarosini topshirishdan bosh

tortsa, so‘ralayotgan tomonning iltimosiga binoan ushbu fuqaroga nisbatan jinoiy ta’qib qo‘zg’atilishi kerak. Agar tutib berish so‘ralgan jinoyat, to‘liq yoki qisman so‘ralayotgan tomon hududida sodir etilgan bo‘lsa, shuningdek so‘ralayotgan tomonning vakolatli organlari tomonidan tutib berilishi sodir etilgan jinoyat bo‘yicha sud ishlari olib borilayotgan bo‘lsa, tutib berish rad etilishi mumkin. So‘ralayotgan shaxsning ushlab berish to‘g’risida so‘rov kelib tushgan jinoyatni sodir etishga aloqadorligi to‘g’risida yetarlicha yoki ishonchsiz dalillar mavjud bo‘lsa, shaxs tutib berilmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1990-yildagi rezolyusiyasi bilan qabul qilingan “Ekstradisiya to‘g’risida”gi namunaviy shartnoma^{ix} 1957-yildagi “Ekstradisiya to‘g’risida”gi Yevropa konvensiyasi bilan bir xil prinsiplarni o‘z ichiga oladi. Biroq, farqlar mavjud. Namunaviy shartnomaga ko‘ra, ekstradisiya jinoyati yanada qat’iy talablarga javob berishi kerak. U har ikki tomon qonunchiligiga muvofiq, kamida bir yil (ikki yil) muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki undan ham og’irroq jazo bilan jazolanishi kerak. Agar tutib berish to‘g’risidagi so‘rov ushbu jinoyat uchun tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish yoki boshqa chorani ijro etish uchun qidiruvda bo‘lgan shaxsga tegishli bo‘lsa, ushlab berish faqat ushbu muddat tugashiga kamida (to‘rt-olti) oy qolganda amalga oshiriladi. Jumladan (Namunaviy shartnomaning 2-moddasi). So‘ralayotgan va so‘ragan tomonlarning qonunchiligiga muvofiq qilmishning jinoiyligini aniqlash uchun namunaviy shartnomada moslashuvchan qoidalar nazarda tutilgan. Har ikki tomon qonunchiligiga muvofiq qilmish, jinoiy qilmish ekanligini aniqlashda quyidagilar muhim emas:

Jinoyatlar, tomonlar qonunchiligiga muvofiq bir toifaga kiradimi va ular bir xil belgiga egami;

Tomonlarning qonunchiligiga muvofiq, so‘ralayotgan davlat tomonidan ko‘rsatilgan harakatlар yoki harakatsizliklarning butun majmui hisobga olinganda ushbu jinoyat tarkibining tarkibiy qismlari farqlanadimi (2-modda).

Agar shaxsni topshirish soliq, bojxona to‘lovleri, valyuta nazorati yoki boshqa daromad masalalariga oid qonun hujjalarni buzganligi uchun so‘ralgan bo‘lsa, so‘ralayotgan davlat qonunchiligida shunga o‘xshash tur nazarda tutilmaganligi sababli ushlab berish rad etilmaydi. Soliqlar, bojxona to‘lovleri yoki so‘rov yuborayotgan davlat qonunchiligida ko‘rsatilganiga o‘xshash valyuta ayrboshlash uchun shart mavjud emas (2-modda). “Ekstradisiya to‘g’risida”gi namunaviy shartnomaning ushbu qoidasi Yevropa konvensiyasidan farq qiladi, unga ko‘ra shaxs moliyaviy jinoyatlar uchun ekstradisiya qilinmaydi.

Hozirgi vaqtida ekstradisiya instituti rivojlanishda davom etmoqda. Agar ekstradisiya qilingan shaxsga uning huquq va erkinliklarini hurmat qilgan holda adolatli sud muhokamasi huquqi kafolatlangan bo‘lsa, shaxsni topshirish mumkin deb hisoblanadi. “Siyosiy jinoyat” uchun ekstradisiya qilmaslik konsepsiyasida

o‘zgarishlar mavjud. So‘nggi paytlarda dunyoning turli burchaklarida xalqaro bo‘lmasan qurolli to‘qnashuvlar vaqtida terrorchilik harakatlari keng tarqalib, jinoyatlar sodir etilmoqda. Bunday qilmishlarni sodir etilgan qilmishlarning siyosiy mohiyatidan kelib chiqib, jinoiy javobgarlikka tortishdan tashqarida qoldirish o‘ta xavfli jinoyatlar sodir etgan shaxslarni jazosiz qoldirish orqali yomonlik qilishni anglatadi. Ko‘pgina xalqaro konvensiyalarda, hatto siyosiy xarakterdagi jinoyatlar ham ekstradisiya qilinishi mumkinligi alohida belgilab qo‘yilgan. Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslar ekstradisiya qilinishi kerak. Shunday qilib, Xalqaro jinoiy sud yurisdiksiyasiga quyidagilar kiradi: genosid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va bosqinchilik jinoyatlari. Ularning barchasi ekstradisiya qilinadigan jinoyatlar qatoriga kiradi.

Xulosa o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining makonda amal qilish doirasi tamoyillarini qonunchilik bilan tartibga solish va qo‘llash xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga, O‘zbekistonning xalqaro shartnomasiga muvofiq bo‘lishi, agarda bunday normalarga nomuvofiqlik yuzaga kelgan taqdirda, xalqaro huquq normalari qo‘llanilishi kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. *Qarang: Hozirgi xalqaro huquq. M., 1999. T. 3.23 betlar*
2. *Qarang: Xalqaro jinoyat sudi. Glasnost fondi. M., 2000. 51 bet.*
3. *Qarang: Xalqaro huquq. Inform Consultant Plus tizimining huquqiy bazasi*
4. *Qarang: Braunli.Ya. Xalqaro huquq: 2 kitobda. 433-434 betlar.*
5. *Qarang:Inogamova-Xegai L.V. Xalqaro jinoyat huquqi. M., 2003. 132,143-144-betlar.*
6. *Qarang:Boyko A.I. Xalqaro va Rossiya jinoyat huquqi. Rostov, 2004. 51- b*
7. *Qarang:Knyazov A.G. Jinoyat qonunining makonda harakati. Ulyanovsk 2006 yil.39-bet.*
8. *Qarang: <http://www.rambler.ru/db/news/msg.html?ph=l&mid=7438950>*
9. *Qarang: Xalqaro huquq. ConsultantPlus tizimining axborot va huquqiy bazasi .*